



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIGI VA MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDAGI ROLI

Maxmudov Dilshod Abdixalil o‘g‘li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, (PhD)

Boboyev Maqsud Eshmamatovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi tashqi siyosiy faoliyati va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik jarayonini ilmiy tahlil qiladi. Konstitutsiyada belgilangan tamoyillar hamda birinchi prezident Islom Karimov tomonidan asoslangan tashqi siyosat konsepsiyasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilagan. O‘zbekistonning BMT, YUNESKO, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, MAGATE kabi tuzilmalar bilan aloqalari, a‘zolik jarayonlari hamda amalga oshirilgan qo‘shma dasturlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyoda xavfsizlikni mustahkamlash, Afg‘oniston bo‘yicha tashabbuslar va yadrosiz mintaqa yaratish g‘oyalari mamlakatning xalqaro maydondagi strategik o‘rini yoritadi.

Kalit so‘zlar: xalqaro tashkilotlar, tashqi siyosat, BMT, YUNESKO, MAGATE, integratsiyalashuv, diplomatiya, mintaqaviy, barqarorlik.

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ И ЕГО РОЛЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Махмудов Дилшод Абдихалил угли

Шахрисабзский государственный педагогический институт, (PhD)

Бобоев Мақсуд Эшмамамович

Шахрисабзский государственный педагогический институт, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье представлен комплексный научный анализ эволюции внешней политики Республики Узбекистан и её стратегического взаимодействия с международными организациями в период независимости. Исследование базируется на анализе конституционных принципов и концептуальных основ внешнеполитической деятельности, определивших национальные интересы и приоритеты государства на международной арене. В работе подробно рассматриваются механизмы интеграции и результаты сотрудничества Узбекистана с такими универсальными институтами, как ООН, ЮНЕСКО, ВОЗ и МАГАТЭ. Особое внимание уделено конструктивной роли страны в укреплении региональной безопасности в Центральной Азии, включая инициативы по мирному урегулированию афганского вопроса и реализацию договора о зоне, свободной от ядерного оружия (ЦАЗСЯО).

Ключевые слова: внешняя политика, международные организации, ООН, дипломатия, региональная безопасность, ЦАЗСЯО, стратегическое партнерство, геополитика.

UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS AND ITS ROLE IN REGIONAL SECURITY SINCE INDEPENDENCE

Maxmudov Dilshod Abdixalil o‘g‘li

Shahrisabz State Pedagogical Institute, PhD

Boboyev Maqsud Eshmamatovich

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Senior Lecturer

Abstract

This article provides a scholarly analysis of Uzbekistan's foreign policy and its cooperation with international organizations in the post-independence period. Constitutional principles and the foreign policy concept developed by the first President, Islam Karimov, established the country's priority directions. Uzbekistan's relations with the UN, UNESCO, the World Health Organization, and the IAEA, its membership processes, and joint programs are examined. Furthermore, initiatives to strengthen security in Central Asia, address Afghanistan, and establish a nuclear-free zone highlight the country's strategic

international role.

Keywords: international organizations, foreign policy, UN, UNESCO, IAEA, integration, diplomacy, regional stability.

XXI asr bo'sag'asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga daxldorlik hissi tobora kuchaydi. Ana shu jarayonda O'zbekiston yosh mustaqil davlat sifatida to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirib, ularning ishida faol ishtirokchiga aylanishi bilan xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlab bordi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatini belgilovchi asosiy tamoyillar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o'z aksini topdi [1]. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining ko'plab asarlari, ma'ruza va nutqlarida tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarning asosiy tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab bergan. Shu asosda qisqa davr ichida mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy bazasi shakllantirildi.

“O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida”gi qonun [2] mamlakatimizning dunyo mamlakatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishiga hamda jahondagi nufuzli xalqaro tashkilotlarning to'laqonli a'zosi bo'lishiga asos sifatida xizmat qildi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi 100 dan ortiq xalqaro, shular jumlasidan 41 ta nufuzli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosi hisoblanadi [3]. O'zbekiston Respublikasi qisqa davrda jahondagi yirik xalqaro tashkilotlar — BMT [4], Jahon pochta ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Xalqaro elektr aloqalari ittifoqi, Xalqaro rekonstruksiya va rivojlanish banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Shimoliy Atlantika hamkorligi tashkiloti Kengashi, Yevropada tiklanish va taraqqiyot banki, Qo'shilmaslik harakati, Bojxona hamkorligi kengashi, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro metrologiya tashkiloti, YUNESKO, Xalqaro atom energetikasi agentliklari bilan aloqa o'rnatib, a'zolikka qabul qilindi [5].

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda xalqaro tinchlik, xavfsizlikni saqlash va hamkorlik tashkiloti bo'lmish BMTga a'zo bo'ldi. Bu tarixiy voqea O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o'rin olishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi respublikada BMTning Taraqqiyot dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Qochoqlar ishi bo'yicha Oliy komissari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg'armasi, narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha dastur, Bolalar jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi [6]. “BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvni BMTning ixtisoslashgan muassasalari — YUNESKO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, YUNKTAD, YUNISEF va boshqalar bilan hamkorlik qilish ma'nosida tushunamiz” [7].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993, 1995, 2000, 2010-yillarda bo'lib o'tgan sessiyalarida Birinchi Prezident I. Karimovning ishtiroki va undagi ma'ruzalari O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida tanitdi. I. Karimovning ushbu yig'ilishlardagi nutqlarida dolzarb masalalarga oid O'zbekiston Respublikasi nomidan bildirilgan takliflar [8] jahon hamjamiyati mamlakatlarining e'tiborini o'ziga jalb qildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 20–22-sentabr kunlari Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisida ishtirok etdi va nutq so'zladi [9]. Xususan, O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadrosiz mintaqa masalasi bo'yicha tashabbusi jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholandi [10]. 2009-yilning mart oyidan boshlab esa bu haqdagi shartnoma kuchga kirdi [11]. Bundan tashqari, O'zbekiston BMTning maxsus tashkiloti MAGATE [12] bilan 1998-yildan shartnoma asosida aloqa o'rnatib, hamkorlikda 14 ta mintaqaviy va mintaqalararo hamda 5 ta milliy loyihani amalga oshirmoqda [13].

Afg'oniston bo'yicha “6+2” guruhi uchrashuvining yakunlovchi hujjati sifatida 1999-yil 19-iyulda “Afg'onistondagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishning asosiy prinsiplari to'g'risida”gi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Toshkent deklaratsiyasi rasman Afg'on muammosini siyosiy yo'l bilan hal qilish uchun asos sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjati maqomini oldi [14].

2001-yilda O'zbekiston BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo bo'ldi [15]. Hozirgi kunda hamkorlikda texnika va qishloq xo'jaligi sohasida bir nechta loyihalar amalga oshirilmoqda. 2002-yil BMTning Yer xartiyasi qabul qilindi [16].

YUNESKO bilan O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik 1993-yil 26-oktabrda o'rnatilib, 1996-yilda Toshkentda vakolatxonasi ochildi [17]. YUNESKOning O'zbekistondagi va Markaziy Osiyodagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari madaniy va tarixiy merosni saqlash va o'rganish, ma'naviy hamda dunyoviy taraqqiyotga ko'maklashishdan iboratdir. Shundan kelib chiqib, jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlarimiz yubiley sanalari, ko'hna va navqiron shaharlarimizning ming yillik sanalari xalqaro miqyosda nishonlangani amaliy ishlar ko'lami kengligidan dalolat berib turibdi. YUNESKO ekspertlari Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda davlat ta'lim siyosatidagi islohotlar masalasi yuzasidan ish olib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning mustaqillik yillarida shakllangan tashqi siyosati davlatning xalqaro maydondagi o'rmini mustahkamlashga qaratilgan izchil va pragmatik yo'nalishdir. O'zbekiston qisqa vaqt ichida ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib, ularning faoliyatida samarali ishtirok etmoqda. BMT, YUNESKO, FAO, MAGATE va boshqa xalqaro institutlar bilan hamkorlik mamlakatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash hamda madaniy merosni asrash jarayonlariga muhim hissa qo'shdi. Umuman olganda, xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamkorlik O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va global jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan amaliy loyihalar samaradorligini oshirish va ularni yangi yo'nalishlar bilan boyitish zarur. Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik bo'yicha O'zbekiston ilgari surgan tashabbuslarni davom ettirish maqsadga muvofiq. YUNESKO va boshqa tashkilotlar bilan madaniy merosni asrash, ilmiy tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish lozim. BMT tizimidagi dastur va agentliklarda o'zbekistonlik mutaxassislar ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. IV bob, 17-modda. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – B. 6.
2. Закон Республики Узбекистан «О международных договорах Республики Узбекистан» // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. – 1995. – № 12. – С. 175–187.
3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy sayti (keyingi o'rinlarda: O'zR TIV).
4. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Asosiy omillar. – Toshkent: BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2001. – B. 6; (O'zbekiston ovozi, 2009-yil fevral).
6. ЦГА РУз. Республика Узбекистан: членство в международных организациях. – Ф. М-2, оп. 1, д. 169, л. 38.
7. Xalq so'zi. – 1993-yil 26-oktyabr.
8. O'zR TIV rasmiy sayti: O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. – B. 24–26.
10. O'zR TIV rasmiy sayti: O'zbekiston tashqi siyosiy kursining maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. – B. 26.
12. MAGATE – Atom energiyasi bo'yicha xalqaro tashkilot.
13. O'zR TIV rasmiy sayti: O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
14. Правда Востока. – 1999-yil 29-dekabr.
15. O'zbekiston ovozi. – 2000-yil 2-mart.
16. O'zbekiston ovozi. – 2002-yil 6-iyun.
17. ЦГА РУз. Республика Узбекистан: членство в международных организациях. – Ф. М-2, оп. 1, д. 169, л. 38.